

**“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyat
yagona aksiyadorining
6 - son qarori**

2023-yil 27-iyun

Toshkent shahri Shayxontohur tumani
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

KUN TARTIBI:

1. “O‘zkimyosanoat” AJning ustav kapitali miqdorini belgilash.
2. “O‘zkimyosanoat” AJning e’lon qilingan aksiyalarning eng ko‘p miqdorini belgilash.
3. “O‘zkimyosanoat” AJning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash.

Kun tartibidagi masala yuzasidan qaror qabul qilindi:

1. “O‘zkimyosanoat” AJ aksiyalarining o‘n oltinchi chiqarilishi doirasida har birining nominal qiymati 1 145 so‘m bo‘lgan umumiy hajmi 489 660 156 840 so‘mlik, 427 650 792 dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiyalarni to‘liq joylashtirish yakunlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “O‘zkimyosanoat” AJning ustav kapitali miqdori har birining nominal qiymati 1 145 so‘m bo‘lgan, 1 217 226 295 dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiyalardan iborat 1 393 724 107 775 so‘m etib belgilansin.

3. Jamiatning e’lon qilingan oddiy aksiyalari miqdori 1 572 349 208 donadan, ustav kapitalini oshirish maqsadida jamiat joylashtirilgan aksiyalariga qo‘srimcha ravishda joylashtirishga haqli bo‘lgan e’lon qilingan aksiyalarning miqdori nominal qiymati 1 145 so‘m bo‘lgan egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy 3 000 000 000 dona etib belgilansin.

4. “O‘zkimyosanoat” AJning yangi tahrirdagi ustavi mazkur qarorning ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

5. “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi v.b. T. Muxamedjanov o‘rnatilgan tartibda jamiatning yangi tahrirdagi ustavini amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlasin.

Qaror rasmiy lashtirilgan sana: 27.06.2023-yil